

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

# **ILM SARCHASHMALARI**

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komisiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

**11.2021**

**научно-теоретический методический журнал  
Издаётся с 2001 года**

**Urganch – 2021**

**“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal**

Bosh muharrir dotsent **Ro‘zimboy YO‘LDOSHEV**

| <b>TAHRIR HAY’ATI:</b>                                      |  |
|---|--|
| <b>JURNAL<br/>2001-YILDAN<br/>CHIQA<br/>BOSHLAGAN</b>       | <b>ABDULLAYEV Bahrom</b> , fizika-matematika fanlari doktori,<br><b>ABDULLAYEV Ikrom</b> , biologiya fanlari doktori, professor,<br><b>ABDULLAYEV Ilyos</b> , iqtisod fanlari doktori,<br><b>ABDULLAYEV Ravshanbek</b> , tibbiyot fanlari doktori, professor,<br><b>ABDULLAYEV O’tkir</b> , tarix fanlari doktori,<br><b>ANNAMURATOVA Svetlana</b> , pedagogika fanlari doktori, professor,<br><b>BERDIMUROTOVA Alima</b> , falsafa fanlari doktori, professor,<br><b>DAVLETOV Sanjarbek</b> , tarix fanlari doktori,<br><b>DO’SCHONOV Tangribergan</b> , iqtisod fanlari doktori, professor,<br><b>ERMETOVA Jamila</b> , filologiya fanlari nomzodi, dotsent,<br><b>HAJIYEVA Maqsuda</b> , falsafa fanlari doktori,<br><b>IBRAGIMOV Zafar</b> , fizika-matematika fanlari nomzodi,<br><b>IMOMQULOV Sevdiyor</b> , fizika-matematika fanlari doktori,<br><b>JUMANIYAZOV Maqsud</b> , texnika fanlari doktori, professor,<br><b>JUMANIYOZOV Otaboy</b> , filologiya fanlari nomzodi, professor,<br><b>KALANDAROV Aybek</b> , filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (mas’ul kotib),<br><b>NAVRUZOV Qurolboy</b> , fizika-matematika fanlari doktori, professor,<br><b>OLLAMOV Yarash</b> , yuriduk fanlari nomzodi, dotsent,<br><b>OTAMURODOV Sa’dulla</b> , falsafa fanlari doktori, professor,<br><b>PRIMOV Azamat</b> , filologiya fanlari nomzodi, dotsent,<br><b>QUTLIYEV Uchqun</b> , fizika-matematika fanlari doktori, professor,<br><b>RO‘ZIYEV Erkinboy</b> , pedagogika fanlari doktori, professor,<br><b>SADULLAYEV Azimboy</b> , fizika-matematika fanlari doktori, akademik,<br><b>SADULLAYEVA Nilufar Azimovna</b> , filologiya fanlari doktori,<br><b>SAGDULLAYEV Anatoliy</b> , tarix fanlari doktori, professor,<br><b>SALAYEV San’atbek</b> , iqtisod fanlari doktori, professor,<br><b>SALAYEVA Muxabbat Soburovna</b> , pedagogika fanlari doktori,<br><b>SATIPOV G‘oipnazar</b> , qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor,<br><b>XODJANIYOZOV Sardor</b> , pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o‘ribbosari),<br><b>YOQUBOV Jamoliddin</b> , filologiya fanlari doktori, professor,<br><b>O’ROZBOYEV Abdulla</b> , filologiya fanlari doktori,<br><b>O’ROZBOYEV G‘ayrat</b> , fizika-matematika fanlari doktori,<br><b>G‘AYIPOV Dilshod</b> , filologiya fanlari nomzodi, dotsent. |
| <b>JURNAL<br/>OYDA BIR<br/>MARTA<br/>NASHR<br/>QILINADI</b> |  |
| <b>2021<br/>11(173)</b>                                     |  |

**MUASSIS:** Urganch davlat universiteti. Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrdan o‘tgan. **GUVOHNOMA № 1131.**

Ismoilov Iljos (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti; e-mail: ismoilov\_iles@mail.ru)  
**ISKANDARNING HINDISTON VA CHINGA YURISHLARI ALISHER NAVOIY TALQINIDA**

**Annotatsiya.** Maqolada Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida muhim o'rinni tutuvchi Iskandarning Hindiston va Chinga yurishlari tasviri va ularning genezisi tadqiq etilgan. Bunda, asosan, Sharqda yaratilgan va Navoiy shaxsan tanish bo'lgan manbalarga tayanilgan.

**Аннотация.** В статье исследуется описание похода Александра в Индию и Китай, занимавшего важное место в дастане "Садди Искандери" Алишера Навои, анализируется их генезис. Автор, в основном, опирался на те источники, которые были созданы на Востоке и с которыми Навоий лично был знаком.

**Annotation.** The article is dedicated to examining the description of Alexander's travels to India and China and their genesis, which plays an important role in Alisher Navoi's epic "Saddi Iskandari". It relies heavily on sources in the East that Navoi is personally familiar with.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, Iskandar, Hindiston, Chin, manba, tarix, genezis.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, Искандер, Индия, Китай, источник, история, генезис.

**Key words:** Alisher Navoi, Iskander (Alexander), India, China, source, history, genesis.

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni sujetining ayrim qismlari na "Tarixi Tabariy", "Axbor at-tivol" kabi tarixlarda, na Firdavsiy yoki xamsanavislar iskandarnomalarida uchraydi. Shulardan biri Iskandarning Kashmirga yurishi tasviri bo'lib, ko'pgina tarixlar va Nizomiy dostonida Iskandar forslarni yenggach, Hindistonga safar qilgani qayd etiladi. Navoiy esa Iskandarning Hindga yurishi voqeasi tasviridan oldin Kashmir safarini alohida tasvirlagan. Biz bilgan tarixiy manbalar orasida "Zayn ul-axbor"dagi Iskandarning Kashmirga yurishi haqida: *Va pas sipozi Iron onche boqiy monda bud hamero jam kard va Chin-u Mochin, Hindiston va Kashmir bigirift* <sup>1</sup>tarzidagi qisqa ma'lumot uchraydi. Mazkur boblar Navoiyning an'anadan originallikka intilganini yaqqol isbotlaydi, umuman, bunday holat Navoiyning ijodiy prinsipiha ham xos edi.

Navoiy Kashmir safaridan so'ng Hind yurishi tasviriga o'tadi. Bu geografik joylashuv nuqtayi nazaridan to'g'ri edi, chunki Kashmir viloyati Hindistonning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, Iskandarning Xuroson yo'li orqali yurishi uni, dastlab, Kashmirga olib chiqar, undan so'ng Hindga kirib borish mumkin edi. Eng ishonchli manbalarda Navoiyning yuqoridagi fikrlari uchraydi, xususan, Tabariy Iskandar Eronga noyib tayinlagach, Hindistonga ketganini aytса,<sup>2</sup> Dinovari Iskandarning Furga qarshi yurish qilagani va yuzma-yuz jangda uni mahv etgani to'g'risida yozadi.<sup>3</sup>

Dinovari ma'lumotlari Firdavsiy va Nizomiy dostonlaridagi Furga qarshi jang tafsilotlari bilan deyarli bir xil. Hamza Isfahoni esa Iskandarning Doro o'limidan so'ng Koshg'arga borganini qayd etgan, biroq Hindistonga yurishi to'g'risida hech narsa demaydi.<sup>4</sup> Mazkur tarixiy asarlarda boshqa tafsilotlar uchramaydi. Birgina Mas'udiy Iskandarning Hindistonga safarini batafsil bayon qilgan, undagi voqealar rivoji Firdavsiy, Nizomiy sujetlariga ko'proq mos tushadi. Firdavsiy va Nizomiyning ushbu manbadan istifoda etgan bo'lishi ehtimoldan yiroq emas.

Firdavsiy va Nizomiy Iskandarning hind shohlari Kayd va Furga qarshi yurishlarini tasvirlagan, biroq har ikki sujet Navoiy tasviridagi hind safaridan keskin farq qiladi. "Saddi Iskandariy"da Hindiston bilan bog'liq ikki safar tasvirlangan. Biri Iskandarning Kashmirga yurishi, ikkinchisi Iskandarning Hindistonga yurishi, ammo ular alohida ikki mamlakat sifatida ko'rsatiladi. Ehtimol, Navoiy tasvirlagan bu ikki safar Firdavsiy o'z dostonida bir davlatdagi ikki hukmdor sifatida ko'rsatgan Kayd va Furga qarshi jang qissasining qayta ishlangan variantidir. Ammo Navoiy tasvirlari na badiiy mantiq, na obrazlar, na sujet va voqealar rivojiga ko'ra, Firdavsiy tafsilotlariga o'xshmaydi. Kashmir tafsilotlari mutlaqo yangi, lekin Hind safari borasida qisman o'xhashliklarni aniqlash mumkin.

Navoiy Hindiston yurishi tafsilotlarida Firdavsiy va Nizomiya tayanmaydi, balki ulardan jiddiy farqlanib turuvchi voqealar rivojini taqdim etadi. Firdavsiy va Nizomiy tasvirlagan "Iskandar va Kaydi

<sup>1</sup> Gardiziyy Abusaid Abdulhay ibn Zahhok Mahmud. Tarixi Gardiziyy (Zayn ul-axbor). Tehron, "Chopxonayi Armu'on", 1363 (h.), s. 59.

<sup>2</sup> Tabariy Muhammad bin Jarir. Tarixi Tabariy. Jildi 2, Tehron, "Asotir", 1375 (h.), s. 494.

<sup>3</sup> Dinavariy Abu Hanifa Ahmad bin Dovud. Axbor at-tivol. Tehron, "Bunyodi farhangi Eron", s. 37.

<sup>4</sup> Isfahoni Hamza. Tarixi payg'ambaron va podshohon. Tehron, "Bunyod", 1346 (h.), s. 40. <http://www.rozbook.com/join-prophets-and-kings.html> (05.03.2017).

hindiy” dostoni Kayd tomonidan Iskandarga taslimlik belgisi sifatida yuborilgan to‘rt obraz: shohning qizi, faylasuf, tabib va jom asosiga qurilgan va voqealar rivoji ular bilan chambarchas bog‘liq. Navoiy tasvirida bu obrazlar uchramaydi. Yana bir jihat shuki, Mirxond Firdavsiy va Nizomiydan farqli o‘laroq, Iskandar, dastlab, Furni yenggach, hind shaharlaridan birida Kayd ismli qariyb 300 yoshli diyonatli, raiyat-parvar, hikmat va xiraddan boxabar malik haqida eshitgani, Kayd Iskandarning chorloviqa javoban to‘rt nodir tuhfa: qizi, faylasuf, tabib va qadah yuborganini qayd etadi.<sup>1</sup> Navoiy bu kabi ma’lumotlar bilan tanish bo‘lgan, biroq ularni dostoniga kiritmaslikka qaror qilgan, bu vogelikka to‘qima, afsona sifatida qaragan bo‘lishi kerak. Firdavsiy ham, Nizomiy ham saroydan yiroq ijodkorlar edi, Navoiy esa saroyda xizmat qilgan, tajribasi unga siyosiy masalalar ifodasida reallikka ancha yaqin kelish imkonini bergen. Masalan, Navoiy Firdavsiy va Nizomiy dostonida tasvirlangan Iskandarning Kayd yuborgan tabib va faylasufni sinab ko‘rishi, ayniqsa, bir qancha vaqt faylasuf bilan ramziy narsalar vositasida bahs olib borishi kabilar haqida yozmaslikni ma’qul ko‘radi. Qolaversa, Navoiyning maqsadi salaflarini takrorlamaslik, asarni yangi-yangi lavhalar bilan boyitish edi. Har uch Iskandarnomada Iskandar va Kayd qissasi sulh bilan yakunlangan, shunday bo‘lsa-da, Navoiy dostonidagi Nigor o‘rmoni bilan bog‘liq tafsilotlar, Iskandarnning Hindistonda qishlashi, Iskandar va Royning do‘stona munosabati kabilar Navoiyning mazkur boblarni yozishda butunlay boshqa manbalardan foydalanganini tasdiqlaydi.

Navoiy Iskandarning Chinga (Navoiy Chin va Xitoya yagona geografik hudud sifatida qaragan) yurishini ham keng tasvirlagan. Manbalarning aksariyatida Chin yurishi to‘g‘risida ma’lumotlar bor, jumladan, Tabariy Iskandar Hindistondan Chinga borgani, u yerning hukmdorini o‘ldirib, shaharlarini olgani, shu tariqa, Chin va Tibet bo‘ysundirilganini aytadi.<sup>2</sup> Mirxondning qayd etishicha, Iskandar va Xoqon o‘rtasida munozaralar bo‘lib o‘tgan, natijada Xoqon Zulqarnaynga itoat etgan. Hadya yuborish rasmiga muvofiq, 1000 man axmar tilla, 1000 qat harir, 5000 debolar majmuasi, qaraganning ko‘zini xira qiluvchi, qabzalari dur-u javohir bilan bezatilgan 100 ta shamshir, 100 ta uchqur ot, javohir bilan bezatilgan 100 ta idish, 100 bo‘lak (yoki idish) oq-qora anbar, 1000 misqol mushk, 200 ratl (449.28 g.ga teng og‘irlik o‘lchovi) ud, anvoyi surat va naqshlar bilan bezalgan idishlar, sumur, fanak, qoqumlarning minglab po‘stinlari va boshqa ko‘plab tansiq peshkashlar yuborib uzrxoh bo‘ldi. Iskandar chinliklar bilan tinchlik borasi-da ahndoma tuzadi.<sup>3</sup>

Firdavsiy Iskandarning Fag‘fur Chin bilan munosabatlarini Dinovariydagi kabi yozsa, Nizomiyda Iskandar Chinga ikki marta safar qiladi, biri jahongirlik nomi ostida, ikkinchisi payg‘ambarlik da’vosi bilan sodir bo‘ladi. Dastlabki safar Furni yengganidan so‘ng Tibetga, so‘ng Chinga bo‘ladi. Nizomiy dostonida Xoqon Iskandar huzuriga elchi qiyofasida keladi va xoqonning taklifi bilan sulh tuziladi, bu sujet oldinroq tarixiy manbalarda mavjud edi. Masalan, “G‘urar muluk al-furs va siyarihum”da Nizomiy sujeti deyarli takrorlanadi va Mirxond Xoqonning Iskandarga yuborgan hadyalari borasidagi faktlarni shu manbalardan olgan.<sup>4</sup> Nizomiy bilan zamondosh bo‘lgan Ibn Asir tarixida ham Nizomiy sujeti deyarli o‘zgarishsiz kelgan.<sup>5</sup>

Nizomiydan keyin Iskandarning Chin yurishiga oid nisbatan yangi qarash “Oynayi Iskandariy”da uchraydi. Xusravning fikricha, qadimiy tarixlarda Iskandar va Xoqon muxolifatining Nizomiy qayd etmagan tafsilotlari mavjud.<sup>6</sup> Xusravning bu boradagi asosiy pozitsiyasi shuki, u Firdavsiy va Nizomiyda bo‘lganidek, Xoqonning Iskandar qarshisida mutlaq taslim yoki o‘z yurtini himoya qila olmaydigan obraz qiyofasida tasvirlanishini yoqlamaydi, aslida, Xoqon bir necha bor qattiq kurashgan, lekin jang sulh bilan tamomlangan. Darhaqiqat, qadim turkiy manbalarda Xoqon o‘z yurtini munosib himoya qila olgan, hatto Iskandarni sulh tuzishga majbur qilgan shaxs sifatida ham qayd etiladi.<sup>1</sup> Mahmud Koshg‘ariy va Xusrav Dehlaviy sujetlari o‘rtasidagi bir manba yoki qarashga daxldorlik, o‘zaro yaqinlikni Dinovari ham tasdiqlaydi.<sup>2</sup>

Jomiy ham o‘z dostonida Xoqon va Iskandar sulhining yangi talqinini bayon qilgan. Unga ko‘ra, Xoqon Iskandarning bostirib kelayotganini eshitgach, unga bir kanizak, bir g‘ulom, bitta to‘n va bir das-

<sup>1</sup> Mirxond Muhammad bin Xovandshoh. Ravzat us-safo. Jildi yako‘m. Tehron, “Piruz”, 1338 (h.q.), s. 658.

<sup>2</sup> Tabariy Muhammad bin Jarir. Tarixi Tabariy. Jildi duvvo‘m. Tehron, “Asotir”, 1375 (h.), s. 494.

<sup>3</sup> Mirxond Muhammad bin Xovandshoh. Ravzat us-safo. Jildi yako‘m, Tehron, “Piruz”, 1338 (h.q.), s. 661.

<sup>4</sup> Saolibiy Abumansur. G‘urar muluk al-furs va siyarihum. Tehron, “Nuqra”, 1368 (h.), s. 270 – 272.

<sup>5</sup> Ibn Asir Ali binni Muhammad. Tarixi komil. Tehron, “Asotir”, 1370, s. 331 – 332.

<sup>6</sup> Dehlaviy Amir Xusrav. Oinayi Iskandariy. Matni intiqodi: bo tas‘hih va muqaddimayi Jamol Mirsaidov. Moskva, “Nauka”, 1977, s. 47.

<sup>1</sup> Koshg‘ariy Mahmud. Devon-u lug‘atit turk. 1-tom. T., “Fan”, 1960, 117-bet.

<sup>2</sup> Dinavariy Abu Hanifa Ahmad bin Dovud. Axbor at-tivol. Tehron, “Bunyodi farhangi Eron”, s. 39.

turxon taom yuboradi. Iskandar bu oddiy tuhfadan ham hayratlanadi, ham g‘azablanadi. Uning atrofidagi donishmandlar, tuhfalarning ramziy ekani, ular bir odamga hayotda bir yor, xizmat uchun qul, kiymoq uchun to‘n va yemoq uchun bir kosa taom kifoya, shunday ekan, shuncha mashaqqat chekib Chinga kelishdan maqsad nima, degan ma’noni anglatishini aytishadi. Iskandar Xoqonning donishmandligiga qoyil qolib, masalani sullh yo‘li bilan hal etadi.<sup>1</sup>

Ko‘rinib turibdiki, tarixiy va adabiy manbalarda Iskandar va Xoqon munosabatlarining sulh bilan yakunlanishi, asosan, to‘rt xil, biri Iskandarning elchi qiyofasida Xoqon saroyiga borishi, ikkinchisi, Xoqonning elchi qiyofasida Iskandar huzuriga kelishi, uchinchisi, shiddatli jangdan so‘ng, o‘zaro kelishuv, to‘rtinchisi, Xoqonning donishmandligi bilan izohlangan. Dinovari, Firdavsiy birinchi qarash, Miskavayh, Ibn Asir va Nizomiy ikkinchi, Xusrav uchinchi, Jomiy esa to‘rtinchchi qarash tarafdoi bo‘lgan. Navoiy ikkinchi qarashni ma’qullagan. Uni bunday yo‘l tutishga undagan birinchi omil mazkur qarashning aksariyat manbalarda uchrashi bo‘lsa, ikkinchi omil voqealar rivojining tabiiy mantiqi edi, chunki Iskandar bunga qadar dostonda katta zafarlarga erishgan, ulkan qudrat egasi sifatida tasvirlangan edi. Uning Xoqondan xavfsirab, elchi qiyofasida huzuriga borishi avvalgi tasvir mantiqiga zid kelardi, Navoiy buni yaxshi his etgan va dostonida to‘la asoslab bergen.

Xamsanavislar – Nizomiy, Xusrav va Jomiy bir masalaning uch xil talqinini qayd etgan. Navoiy voqealar rivoji borasida Saolibiy, Miskavayh, Ibn Asir hamda Nizomiy talqinini qabul qilsa-da, voqealar rivojida muallif dunyoqarashi va uslubini belgilovchi aniq ayirmalar mavjud. Navoiyning mazkur sujet bobida Nizomiydan bahramand bo‘lgani aniq, lekin bu Navoiy Nizomiydan ko‘chirgan, degan xulosani bermaydi, chunki Navoiy va Nizomiy sujetlari taqqoslansa, Navoiyning Nizomiy tasvirini jiddiy qayta ishlagani ma’lum bo‘ladi. “Saddi Iskandariy” sujeti o‘ziga qadar yaratilgan manbalarning birortasiga aynan mos kelmaydi, ayrim faktlar, detallar, obrazlarning badiiy funksiyasi, fikrning poetik ifodasi mutlaqo original xarakterga ega.

Chinga safari bilan bog‘liq muhim jihatlardan yana biri Iskandarning hukamo bilan tilsimli usturlob, ko‘zgu ixtiro qilishidir. Manbalarda Iskandarning Xoqon bilan jangdan so‘ng mashriq shaharlarini sayr etgani,<sup>2</sup> biroz muddat Chinda qolgani haqida ma’lumotlar bor. Biroq aksariyat tarixlarda Iskandarning Chinda oynayi jahonnamo va usturlob ixtiro qilgani to‘g‘risida faktlar uchramaydi. Masalan, Mas‘udiy (h.280-yillar) Iskandarning Chin va Tibetga yurishi haqida to‘xtalar ekan, ba’zan ustozi Aristotel yordamida tabiiy ilmlar bilan mashg‘ul bo‘lgani, xususan, falsafani ilohiyot bilan bog‘lashga harakat qilib, narsa va hodisalar haqiqatini sharhlagani, ularni isbotlashga uringani, bularni kishilarga tushunarli qilgani haqida aytadi.<sup>3</sup>

Ma’lumki, XVI asrga qadar po‘latdan yasalgan oynalar ishlatilgan, keyinchalik, shishadan yasalgan oynalar keng tarqala boshlagan. Qadimda Iskandar shaxsiyati katta obro‘ga ega bo‘lgani bois muhim ishlarni unga nisbat berish tendensiyasi mavjud bo‘lgan, xususan, oyna ixtirosini ham unga nisbat berishgan. Bu jarayonning natijasi o‘laroq, Iskandariya minorasi (Aleksandriya mayog‘i<sup>4</sup>)ga o‘rnatilgan fonus – ulkan oyna ham, vaqt o‘tishi bilan, Iskandarga nisbat berila boshgan. Odamlar minora binosini Iskandar qurdirgan deb hisoblashgan, chunki bandargohning nomi Iskandariya edi. Shu bois minoraga o‘rnatilgan oynani Oynayi Iskandariya, ya’ni Iskandariya bandargohi uchun maxsus yasalgan oyna deb atashgan. Keyinchalik, Iskandariya so‘zi talaffuzda o‘zgarishlarga uchrab, Iskandarga almashgan va Oynayi Iskandar deb atala boshlangan.<sup>5</sup>

Nizomiy ilk oyna ixtirosini Iskandarga nisbat beradi<sup>1</sup> va Iskandar Chinga qilgan safari davomida chinlik naqqoshlar sayqal bergen oynaga guvoh bo‘lganini ham yozadi.<sup>2</sup> Xusrav bu borada Nizomiydan o‘zgacha yo‘l tutadi, u ko‘zgu haqida dostonda maxsus bob tasvirlashdan tashqari, uni asar nomi darajasiga olib chiqdi. Bunda muallif dostondagи o‘zining asosiy yangiliklaridan biriga e’tibor tortishni maqsad qilgan. Xusrav Dehlaviy dostonning XIX bobida bilimning qudrati, hunar haqida so‘zlar ekan, barcha muvaffaqiyatlar ijodkorlik qobiliyati bilan aloqadorligini ta’kidlaydi. Shundan so‘ng XX bobda Iskandarning “ilohiy ilhom va tabiiy quvvat” bilan yuzaga chiqargan ixtirolari usturlob va oyna xususida to‘xtala-

<sup>1</sup> Jomiy Abdurrahmoni. Osori muntaxab. Jildi panjo‘m. Dushanbe, “Irfon”, 1964, s. 282 – 283.

<sup>2</sup> Mirxond Muhammad bin Xovandshoh. Ravzat us-safo. Jildi yako‘m, Tehron, “Piruz”, 1338 (h.q.), s. 661.

<sup>3</sup> Mas‘udiy Ali binni Al-Husayn. Muruj al-zahab. Tehron, Shirkati intishoroti ilmiy va farhangiy, 1374 (h.), s. 283.

<sup>4</sup> Yetti mo‘jizadan biri bo‘lgan ushbu mayoq, aslida, Aleksandr vafotidan so‘ng, uning sarkardasi Ptolomey Soter tomonidan mil. av. 285 – 280-yillar davomida qurilgan.

<sup>5</sup> Safaviy Sayyidhasan. Iskandar va adabiyoti Eron. Tehron, “Spehr”, 1364 (h.), s. 215 – 216.

<sup>1</sup> Nizomii Ganjaviy. Xamsa. Iskandarnoma. Dushanbe, “Adib”, 2012, s. 80 – 81.

<sup>2</sup> Shu manba, s. 225 – 227.

di. Xusravning ta'kidlashicha, Iskandarni bu kashfiyotlarga undagan narsa "Jomi Kayxisrav" bo'lib, Iskandar bu jomni Kayxisrav g'origa qilgan safarida uchratadi. Jomda butun olamning oshkor va yashirin rozini ko'rgach, dunyoda o'zidan shu kabi biror yodgorlik qoldirish istagi paydo bo'ladi va olimlar bilan maslahat qilib, ularni yangi ixtiolar yaratishga undaydi. Ko'pchilik, o'ziga xos narsalar ixtiro qiladi, lekin bularning ichida Arastu yasagan usturlob shohga juda ma'qul bo'ladi. Bu asbob vositasida osmon sirslari, xususan, quyosh holatini tadqiq etish mumkin edi. Dehlaviyning aytishicha, usturlob so'zi yunoncha bo'lib, ustur – tarozi, lob – oftob ma'nosini anglatadi, shunga muvofiq usturlob – Quyosh tarozisi, ya'ni Quyoshni kuzatishga mo'ljallangan asbob ma'nosini bildiradi.<sup>1</sup>

Navoiy ijodida Iskandarga nisbat beriluvchi ikkita oyna xususida so'z boradi. Ularning yaratilish tarixi, xususiyatlari "Saddi Iskandariy", "Tarixi anbiyo va hukamo" va "Layli va Majnun"da qayd etilgan. Navoiy Iskandarning Chinga yurishini tasvirlar ekan, Xoqon mehmonga tortiq qilgan tuhfalar orasida Oynayi Chin – rostgo'y ko'zgu ham bor edi. Iskandar bu noyob sovg'adan nihoyatda taajjubga tushadi va Chinda qishlashni lozim topib, hukamo ittifoqi bilan po'latdan ko'zgu, qo'rg'oshin va misdan usturlobni yaratadi. Bu – Chinda yasalgan va Iskandarga nisbat beriluvchi birinchi oyna, Navoiy bu obrazning o'ziga xos talqinini Farhod taqdidi misolida tasvirlab bergan. Navoiy mazkur ixtiolar borasida Xusravdan ta'sirlangan, biroq uning qarashlari Amir Xusravnikidan prinsipial farqlarga ega. Navoiyga ko'ra, oyna yunonlardan avval chinliklarda bo'lgan, Iskandar bu g'aroyibotdan ajablangan, biroq u Xusrav Xoqonga nisbat berayotgani kabi oddiy oyna emas, balki tilsimli ko'zgu bo'lgan. Shu bois Navoiy o'z ijodida Oynayi Iskandariy deganda ikki ko'zguni nazarda tutadi: 1) Chinda ikki yuz hakim bilan yasalgan oyna; 2) Iskandariya minorasiga o'rnatilgan oyna.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Alisher Navoiy Iskandarning Kashmir va Hindistonga yurishlari tasvirida salaflarida uchramaydigan butunlay yangi sujet va epizodlarni taqqid etgan. Iskandarning Chinga yurishi borasida esa nisbatan salaflariga yaqin yo'l tutgan, lekin bu yerda ham jiddiy farqlar ko'zga tashlanadi. Navoiyning bunday yo'l tutishi, birinchidan, originallikka intilish bilan, ikkinchidan, iste'dod va ilmiy salohiyat bilan, uchinchidan, badiiy maqsad bilan izohlanadi.

**Сайдова Мухайё Умедилоевна (Бухоро Давлат университети  
Инглиз тилишунослиги кафедраси катта ўқитувчиси (PhD); [mukhayyo1981@mail.ru](mailto:mukhayyo1981@mail.ru))  
ИНГЛИЗ АДАБИЁТШУНОСЛИК ТЕРМИНЛАРИНИ ЎЗБЕК ТИЛИГА ТАРЖИМА  
ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ**

**Аннотация.** Уибу мақолада адабиётшинослик терминларининг ўрганилганлик даражаси ва аҳамияти тўғрисида тўхталиб, инглиз адабиётшинослик терминларининг ўзбек тилига таржима қилиши масалалари ҳақида маълумотлар берилган.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значимость литературоведческих терминов, приводится информация о проблеме перевода английских литературоведческих терминов на узбекский язык.

**Annotation.** This article discusses the importance and the significance of literary terms, provides information on the problem of translating English literary terms into Uzbek.

**Калим сўзлар:** адабиётшинослик терминлар, транскрипция, транслитерация, калька, генерализация, экспликация, компенсация.

**Ключевые слова:** литературный термин, транскрипция, транслитерация, калька, генерализация, экспликация, компенсация.

**Key words:** literary term, transcription, transliteration, word for word translation, generalization, explication, compensation.

Инсон илмий тафаккурининг ҳосиласи бўлган терминлар, хусусан, адабий-бадиий терминлар, асосан, соҳа мутахассисларигагина таниш, улар факат таржима туфайли ўзга халқлар онги ва шуурига кириб бора олади. Бунда аслият терминлари билан таржима тил соҳибини боғловчи ягона бўғин бу, табиийки, таржимондир. Унинг роли ва масъулияти ана шу билан белгиланади. Ҳар қандай матн каби термин ҳам (термин – микроматн эканлигини унутмайлик) таржимаси унинг қандай изоҳланганлиги билан белгиланади. Бир томондан, термин интралингвистик тизим обьекти сифа-

<sup>1</sup> Dehlaviy Amir Xusrav. Oinayi Iskandariy. Matni intiqodiy: bo tas'hih va muqaddimayi Jamol Mirsaidov. M., "Nauka", 1977, s. 155 – 156.

## MUNDARIJA

### FIZIKA-MATEMATIKA

|  |    |
|--|----|
| Акрамов Нурали Севдиёр ўғли, Расулов Камол Карим ўғли. Теорема единственности для класса $\alpha$ - гармонических функций.....                                   | 3  |
| Матякубов Зокирбек Кадамович. Формула Карлемана для матричной полуплоскости Зигеля.....  | 8  |
| Qodirov Davronbek Rajabboy o‘g‘li, Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Kenesbaeva Periyat Ismaylovna. Potensiometr orqali yorug‘lik diodini boshqarish usullari..... | 13 |

### BIOLOGIYA

|  |    |
|--|----|
| Утемуратова Гулширин Нажиматдиновна, Ешчанова Сайёра Шукурилла кизи, Бабаджанова Ширин Кадамовна. Экологический анализ пространственного распределения грызунов в условиях южного приаралья..... | 18 |
|--|----|

### FALSAFA

|  |    |
|--|----|
| Эшпулатов Иноят Сапарович. Газзолий ва унинг руҳият фалсафаси.....   | 21 |
| Эшонқулов Лазиз Норқобил ўғли. Эстетик тафаккур тизимида ҳажвийликнинг когнитив механизми.....                   | 24 |
| Эватов Салимжон. Ҳаким ат-Термизий тасаввуфий қарашларида қалб моҳияти.....                                      | 28 |
| Айтбоев Мансурбек Юсупович. Маҳмуд Замахшарий ва унинг ижтимоий-ахлоқий таълимотининг ўзига хос жиҳатлари.....   | 34 |
| Ахмедова Маърифат Абдуллаевна. Тасаввуф фалсафаси ва унда ахлоқий-маънавий ғояларнинг акс этиши.....             | 38 |
| Джураев Лукмон Нарзуллаевич. Ёшлар онгиди иқтисодий маданиятнинг қадриятли йўналишини шакллантиришдаги ўрни..... | 41 |
| Рустамов Рамз Ризокулович. Ўрта аср Ғарб ва Шарқ тарғибот системаларининг ўзига хос хусусиятлари.....            | 45 |

### TILSHUNOSLIK

|  |    |
|--|----|
| Отаханова Махлиёнҳон Камолиддин қизи. Антропоцентрик парадигмада когнитив тилшунослик, лингвокультурология ва концепт..... | 48 |
| Жуматов Рашид Янгибаевич. Инглиз ва ўзбек топонимларининг таркиби қиёси антропоцентрик таҳлил манбаси сифатида.....        | 53 |
| Рахимова Гўзал Юлдашовна. Редупликация ва унинг деривацион функцияси.....  | 57 |
| G‘aybullayeva Dildora Fayzulla qizi. Frazeologik birliklar bilim tuzilmalarini aks ettirish vositasi sifatida.....         | 61 |

### ADABIYOTSHUNOSLIK

|   |    |
|---|----|
| Mansurova Malika Asqarovna. Adabiyotshunoslikda prototip tushunchasining o‘rganilishi.....                    | 65 |
| Назарова Шахноза Ибадуллаевна. “Ўзбек ёш шоирлари” тўпламининг янги ўзбек шеърияти юзага келишидаги ўрни..... | 68 |
| Холмуродов Холийигит. Алишер Навоий шеъриятида абадий мотив ва образлар трансформацияси.....                  | 71 |
| Дошанова Гулжакан. Иккилик шеърий жанри ҳақида.....   | 75 |

### PEDAGOGIKA

|  |    |
|--|----|
| Ergasheva Maxbuba Xotambekovna, Asliddinova Firuza Navruzovna. Bugungi zamon ta’limining tizimli tahlili.....  | 78 |
| Артикова Мухайёнҳон Ботирилиевна, Тўрабоева Мадинахон Рахмонжон қизи. Педагогик фанлар мисолида талабаларнинг шахсий-креатив компетенциясини ривожлантиришнинг назарий-методологик асослари..... | 82 |
| Мирзаев Санжар Олимович. “Электр таъминоти” фанини интерфаол методлар асосида ўқитишнинг ўзига хос хусусиятлари.....   | 85 |
| Mislidinov Baxtiyor Zaynidinovich, Muminov A’зам Latifxonovich. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida fizika o‘qitishning samaradorligini oshirish.....                                | 88 |
| Анорбоева Солиҳа Аскаржон қизи. Испан тилини ўқитишида талабаларда таржимонлик компетенциясини шакллантириш методикасининг тушунчаси ва уларнинг моҳияти.....                                    | 91 |
| Mengliyev Islom Abdumuratovich. Talabalarga axborot texnologiyalarini qo‘llash asosida fanlararo bog‘liqlikni o‘rgatish samaradorligini oshirish.....  | 93 |

|   |     |
|---|-----|
| <b>Шомирзаев Махматмурод Хурамович.</b> Халқ ҳунармандчилигига “Кластер” методидан фойдаланишнинг инновацион стратегияси.....   | 99  |
| <b>Madaminov Azimbek Egamberganovich.</b> Talabalarning jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishida ilmiy tadqiqot olib borish parametrlari.....   | 102 |
| <b>Худайбердиева Нодира Абдуякубовна, Норкулов Шавкат Тургунбоевич, Қидиров Аброр Құдратович, Ғайназаров Бунёд, Камардинова Чарос Бахтиёр қизи.</b> Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида педагогик кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш хусусида..... | 105 |
| <b>Юлдашев Жавохир Абдурахим ўғли.</b> Талабаларда тарих фани орқали аксиологик билимларни ривожлантириш.....   | 110 |
| <b>Davlatova Hulkaroy.</b> The Influence of the English Language on the Speech of Uzbek Children.....   | 112 |

## ILMIY AXBOROT

|   |     |
|---|-----|
| <b>Ҳайитов Ақмал Холбоевич.</b> Талаба-ёшлар бўш вақтининг таркибий тузилиши.....   | 116 |
| <b>Самирова Хушнуда Ботировна, Маматқулова Нодира Файзулла қизи.</b> Эркалаш ва кичрайтириш термины изохи турли тиллар нигоҳида.....  | 118 |
| <b>Амонтурдиева Шонра.</b> Диний матнларда гапнинг ифода мақсадига кўра турларининг қўлланилиши.....  | 122 |
| <b>Babayev Maxmud Tashpulatovich.</b> O‘quv mashg‘ulotlari jarayonida nemischa suffikslar yordamida otlarning yasalishini o‘rganish.....  | 126 |
| <b>Haydarova Nodirabegim Ahtamjon qizi.</b> Badiiy diskursda inson fiziologiyasi bilan bog‘liq til birliklarining lingvomadaniy tahlili.....  | 128 |
| <b>Каримов Рустам Абдурасулович.</b> Парапелл корпуснинг лингвистик хорижий тил лингводидактикасидағи ахамияти ва таржимонлик соҳасидаги имкониятлари.....                                    | 131 |
| <b>Абдухамирова Диляфруз Абдухабировна.</b> Япон тилида Ӣ-хаха (она) сўзи ва унинг семантик моделлари.....  | 134 |
| <b>Йўлдошев Улугбек Равшанбекович.</b> Бадиий таржима муаммоларини бартараф этиш усуллари.....  | 140 |
| <b>Одилова Гулноза.</b> Амир Темур даврида халқнинг овқатланиш рациони ва сарой зиёфатларида шарқона хизмат кўрсатиш анъаналари.....  | 143 |
| <b>Ismoilov Nyos.</b> Iskandarning Hindiston va Chinga yurishlari Alisher Navoiy talqinida.....   | 147 |
| <b>Сайдова Мухайё Умединовна.</b> Инглиз адабиётшунослик терминларини ўзбек тилига таржима қилиш масалалари.....  | 150 |
| <b>Mizrabova Jeren Ismailovna.</b> Ingliz tilidagi kalamburning o‘zbek tiliga tarjimasida qayta yaratish muammogra.....   | 153 |
| <b>Батиршина Жумакул Колмирзаевна.</b> “Уста ва Маргарита” романининг ўзига хос бадиий хусусиятлари.....  | 157 |
| <b>Ashirova Anorgul Ismoilovna, Baltaeva Iroda Ismailovna, Yangibayeva Reymajon Adilbekovna, Allaberganova Nasiba Muradovna.</b> Articulate storyline dasturida test yaratish uslubiyoti..... | 159 |
| <b>Тўхлиев Мансур Махмудович.</b> Такомиллаштирилган күёш сув иситиш коллекторини тадқиқот қилиш...   | 164 |
| <b>Shukurova Sabohat Odilovna.</b> Shaxs va jamiyat paradokslarining obrazlar evolutsiyasidagi interpretatsiyasi....  | 167 |
| <b>Qurbanova Shahlo Shuhratovna.</b> Jamiyat konsepsiysi va ko‘p qatlamlili tasvir.....   | 170 |
| <b>Shodiev Shahobiddin Sharofiddinovich.</b> “Makbet” va “Abulfayzxon” tragediyasida falsafiy so‘zlar va tabiat va jamiyat tushunchasi.....   | 173 |
| <b>Абдуллаева Раъно Ҳикматовна.</b> Ценностный аспект эстетической презентации пословиц узбекского и русского языков.....   | 176 |
| <b>Юсупова Камола.</b> Исторические формы рекламы в государствах древнего мира.....   | 179 |
| <b>Ibrokhimova Dilshoda Turayevna.</b> Studying the Phenomenon of Humanity at the Center of the Universe is the Main Principle of the Philosophy of Anthropocentrism.....                     | 182 |
| <b>Abdinazarov Khasan Shaymanovich.</b> Lexical Deficiency of Oil and Gas Terminology Observing in Translation from English into Uzbek language via GT (Google-translate).....                | 186 |
| <b>Arslonbekova Rano.</b> Principles of Business Correspondence.....  | 189 |

## FANIMIZ ZAHMATKASHLARI

|                               |     |
|-------------------------------|-----|
| Самарали меҳнат натижаси..... | 194 |
| Эл саломатлиги фидойиси.....  | 195 |